



2018 yilning yanvar-iyul oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **7578,4 mlrd.so'mni**, o'sish **9,1 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1460,3 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **19,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **21,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7578,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 13,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 2,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 8,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 277,9 % ga o'sishi hisoblanadi.


2018 yilning yanvar - iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1460,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 19,3 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yil yanvar - iyul oylarida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 55,2 foizni va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 44,8 foizni tashkil etdi.


Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,3 % ulushini), G'uzor (20,6 %) tumanlari, Qarshi shahri (12,3 %), Nishon (9,7 %) va Qarshi(5,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Chiroqchi (1,4 %), Yakkabog` (1,6 %), Kitob (1,9 %), Shahrisabz (1,8 %) va Mirishkor (1,7 %) tumanlariga to`g`ri keladi.


Sanoat mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha Qarshi tumani (2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 229,5 % ga), Mirishkor (128,2 % ga) , Dexqonobod (115,8 % ga), Koson (117,6 % ga) Qamashi (117,1 % ga) va Yakkabog` (117,8% ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab hiqarish hajmining oshishi ta`minlandi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish o`sish sur`atlari, % da



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (26642,4 ming so'm), G'uzor tumanida (7926,9 ming so'm), Nishon tumanida (5027,1 ming so'm) va Qarshi shahrida (3480,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2397,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar - iyul oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 21,5 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Yakkabog` tumanida (89,7 %), Chiroqchi tumanida (86,4 %), Shaxrisabz tumanida (81,9), Qarshi (60,1%) va Shaxrisabz (54,1 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,5 %), G'uzor tumanida (2,4 %), Nishon tumanida (5,2 %) va Dehqonobod tumanida (11,3 %) kuzatildi.


2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 499 tasi Qarshi shahrida, 330 tasi Kitob tumanida, 238 tasi Shaxrisabz shahrida, 209 tasi Yakkabog` tumanida, 178 tasi Qarshi tumanida, 146 tasi Chiroqchi tumanida, 138 tasi Qamashi tumanida, 106 tasi Shaxrisabz tumanida, 124 tasi Koson tumanida, 87 tasi Guzor tumanida, 64 tasi Kasbi tumani, 49 tasi Muborak tumani, 52 tasi Nishon tumanida, 41 tasi Dehqonobod tumanida va 47 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 278 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 60 tadan ortiq Qarshi shahriga, 30 tadan ortiq Chiroqchi va Kitob tumanlariga, 20 tadan ortiq Qamashi, Qarshi va Shaxrisabz shahriga, 10 tadan ortiq Shaxrisabz, Yakkabog`, Koson va Kasbi tumanlariga to'g'ri keladi.

